

KITOB MUTOALASI VA KITOBXONLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Suyarova Nasiba Norqulovna

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Kutubxona-axborot faoliyati

3- kurs sirtqi ta'lif

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonlarida kitob mutoalasidan to‘g‘ri foydalanish hamda u orqali jamiyatda yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish borasida bir qancha fikr-mulohazlar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshiriliyatogan bu boradagi islohotlar xususida ham tahliliy va qiyosiy ma’lumotlar bildirilgan.

Kalit so‘z: ta’lim-tarbiya, ijtimoiy muhit, kitob mutoalasi, madaniy hayot, islohot, yosh kitobxon

Аннотация: В данной статье представлен ряд мнений относительно правильного использования чтения книг в образовательном процессе сегодня и разработки педагогических основ воспитания через него культуры чтения среди молодежи в обществе. Также была представлена аналитическая и сравнительная информация о реформах в этом направлении, реализуемых в нашей стране.

Ключевые слова: образование, социальная среда, книгочтение, культурная жизнь, реформа, юный читатель.

Annotation: In this article, a number of opinions are presented regarding the correct use of book reading in educational processes today and the development of pedagogical foundations for raising the culture of reading among young people in the society through it. Analytical and comparative information about reforms in this regard implemented in our country was also presented.

Key word: education, social environment, book reading, cultural life, reform, young reader

Azaldan xalqimiz o‘z farzandlarini baxtli bo‘lsin, deya yashaydi. Buning uchun ular “hozirgi murakkab va tahlikali zamonda bola tarbiyasi qanday bo‘lishi kerak?”, “Tarbiyaning qanday usullari bor?”, “Ulardan qay yo‘sinda foydalanish mumkin?” kabi savollarga javob izlaydilar. Chunki tobora globallashayotgan hayotning pedagogik muammolarga ta’lim-tarbiya sohasi mas’ullari, ayniqsa, ota-onha, mahalla, ta’lim muassasalar uchun ilmiy asoslangan yechimlar zarur hisoblanadi.

Shu o‘rinda “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” degan tamoyilida ta’lim muassasalarida yoshlar bilan ishslash, ularning muammolarini o‘rganish va savodxonliklarini oshirish masalalari yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, mahalla faollari, nuroniylar, yoshlar ishtirok etgan tadbirda xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ongu tafakkurini, ma’naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirishda kitobning o‘rni beqiyos ekani alohida ta’kidlanadi va bu borada chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.

2017 yil 12 yanvardagi Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi bu boradagi ishlar samaradorligini bosqichma-bosqich yuksaltirib bormoqda. O‘tkazilayotgan “Eng faol bilimdon kitobxonlar” ko‘rik tanlovlari nafaqat ta’lim muassasalarida, blki barcha mahallalar, oilalar qamrovida ham ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga aylanishi lozim.[1]

2017 yil 13 sentyabrida davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimni rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori yoshlarda kitobxonlik va kitob mutolaasiga, shuningdek, o‘zbek va jahon adabiyotlariga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga e’tibor yanada kuchaytirilmoqda.[2]

Bugun yoshlar uchun ta’lim muassasalarida yaratib berilayotgan sharoitlar barkamol avlodlarni tarbiyalashga zamin yaratmoqda. Kitob insonni ezgulikka undaydi. Yaxshi-yomonni ajratishga ko‘maklashadi. Eng muhimi, ishonchli sirdosh bo‘ladi.

Shu o‘rinda istiqlol arafasida ayrim yurtdoshlarimizda kitobga, kitobxonlikka qiziqish bir qadar susaygan vaqtlar bo‘lganini eslaylik. Hozirgi paytda yurtimizda kitobxonlik, kitobsevarlik fazilati yana yuksalib bormoqda. “Kitob javoni – haqiqiy ziylanining eng ardoqli davlati”, degan an’ana qaytadan urf bo‘lmoqda.

Sohibqiron Amir Temur ta’biri bilan aytganda, “Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiyidir”. Shu ma’noda, shaklidan qat’iy nazar, barcha kitoblar milliy o‘zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etishga xizmat qilishi ayni muddao.[3;54]

O‘z navbatida, el-yurtimizga azaliy xos bo‘lgan odamiylik, insonni qadrlash, mehr-oqibat, bag‘rikenglik kabi oliyjanob qadriyatlar, insonparvarlik, xalqparvarlik va vatanparvarlik kabi yuksak tamoyillar zamondoshlarimiz qo‘liga yetib borayotgan kitoblarning ahamiyati hamda qadrini yo‘qotmaydigan bosh mavzulari bo‘lib qolaverishiga ishonchimiz komil. Kitob - inson umr yo‘llarini yorituvchi so‘nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo‘lguvchi sodiq do‘st.

Insonning ruhiy-ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitobchalik kuchli qudratga esa vosita yo'qdir. Shu boisdan, azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilmu odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan. Tarbiyaning barcha mezon va unsurlari, avvalo, oilada shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashda ham oilaning o'rni nihoyatda kattadir. Qush uyasida ko'rganini qiladi, degan naqlga tayansak, bu mohiyat yanada dolzarb bosqichga ko'tariladi.[4;65]

Yaqin-atrofdagi tanish oilalarimiz hayotiga sinchkov nazar tashlasak, qaysi oilada kitobxonlik madaniyati qay darajada shakllanganligiga amin bo'lamiz. Kimdir dunyoviy hodisalar ummonida suzib yurishni xush ko'rsa, kimlardir badiiy adabiyot osmonida sayr etishga ishtiyoyqmand. Kimdir bir oyda bir kitob o'qishga vaqt ajratsa, yana kimlardir bir haftada bir kitob mutolaa qilishni lozim biladi. Xullas, kitob bilan hamma o'z olamida, o'z xohish va imkoniyatlari chegarasida turli holatda yuzlashadi. Shu o'rinda, mohiyatni yanada aniqlashtirish uchun aynan bir oila misolida kitobxonlikka qaratilgan e'tibor xususida to'xtalib o'tamiz.

Shunday oila borki, ular xonadonida kitob o'qish kundalik mashg'ulot, jiddiy faoliyat sifatida qadr topgan. Besh farzand o'stirayotgan bu xonodon sohib va sohibalari ham o'zлari, ham farzandlarining kitobxon bo'lishi uchun intilishadi. O'zi tug'ilib-o'sgan oilaviy muhitida o'z vaqtida kitobga muhabbat, adabiyotga e'tibor bilan ulg'aygan, kitobxonlikni oilaviy muhim qadriyatga aylantirgan bu insonlar bugun farzandlarining ham kitob atalmish buyuk va bebahoh xazinadan bahramand bo'lib, ma'naviy barkamollikka erishishini istaydi. Buning uchun, ham ota, ham ona o'z vaqt va imkoniyatiga qarab, sermazmun, badiiy-estetik ahamiyati yuqori turli adabiy janrdagi, jahon va o'zbek adabiyoti durdonalarini, diniy-ma'rifiy sarchashmalarni tanlab xarid qilishadi. Bu asarlarni farzandlarining yosh va qiziqishlari, aqliy salohiyati, o'zlashtirish qobiliyatini e'tiborga olgan holda

taqsimlab berishadi. Eng muhimi, kitob taqdim qilinganda, hajmini ham e'tiborga olgan holda, mutolaa uchun muayyan vaqtlar ajratishadi.

Bugun jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasida har doimgi davrdan bir necha barobar ko‘p miqdorda samarali ishlar amalga oshirilmoqda, tashviqot-targ‘ibotlar olib borilmoqda. Shunday bo‘lsa ham, oilaviy muhitda kitobxonlik madaniyati takomili qoniqarli darajada emas. Yuqorida ko‘rib o‘tganimiz kabi kitobsevar oilalar bilan bir qatorda, ularning aksi bo‘lgan oilaviy muhitni ham uchratishimiz achinarli. Ko‘pgina oilalar, ota-onalar na o‘zлari kitob o‘qishga qiziqishadi, na farzandlarini bu borada to‘g‘ri yo‘naltirishadi.[4;72]

Shuningdek, oilaviy kitobxonlikda kitob tanlovi madaniyatiga hamma ham yetarlicha ahamiyat qaratilavermaydi. Badiiy asar tanlashda farzandining yosh va fiziologik xususiyatlari, ruhiy-ma’naviy dunyosi, qiziqish va intilishlar ko‘lamini nazarda tutmas ekan, har qanday kitobsevar ota-onsa bu borada ijobiy yutuqlarga erisha olmaydi. Ko‘rinadiki, mutolaa madaniyatining ham o‘ziga xos me’yor va talablari mavjud. Shularni e’tiborga olgan holda, oilaviy kitobxonlik madaniyatiga ega bo‘lish uchun quyidagi tavsiyalarni e’tiborga olish nazarda tutiladi:

- kitob mutolaasida hamisha farzandlarga o‘rnak bo‘lish;
- kitob tanlash madaniyatiga ega bo‘lish;
- muayyan vaqtarda oila davrasida navbatma-navbat kitob o‘qib berishni yo‘lga qo‘yish;
- xotirani kuchaytirish ahamiyatiga ega bo‘lgani boisidan farzndlarning she’r yodlashiga alohida ahamiyat qaratish, bir oyda kamida 2 ta she’r yodlatishga erishish;

- har bir farzandning yosh va xarakter xususiyatini, ruhiy-ma'naviy dunyosini nazarda tutgan holda kitob taqdim qilish;
- kichik yoshdagi bolalarga ko'proq rang-barang suratlarga yo'g'rilgan, katta-katta harflarda yozilgan, uning beg'ubor xayoloti sarhadlarini aks ettira olgan asarlarni tanlash;
- o'rta yoshli kitobxon farzand uchun esa unga tengdosh qahramonlar taqdiri aks etgan, hayotiy, xayoliy-fantastik voqealar tasvirlangan, ko'ngil kechinmalari jonlantirilgan asarlarni tavsiya qilish;

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rindiki, ma'naviy barkamol kitobxon avlod tarbiyasida oila muhim va mustahkam poydevor. Shu bois jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasidagi har qanday faoliyatda oila bilan hamohang, hamfikr ish yuritish ko'zlangan maqsadlarga erishishga munosib zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar bir tomondan, azaldan kitobsevar xalqimiz, shu jumladan yoshlarimizning kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish yuzasidan hozirgi zamon talablari darajasida juda keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yaqin vaqt oralig'ida O'zbekistonimizning tom ma'noda kitobxonlar yurtiga aylanishiga xizmat qiladi.

Inson hayoti uchun eng zarur narsalar qatorida birinchi non bo'lsa, ikkinchisi kitobdir. Non insonning moddiy ehtiyojini qondirsa, kitob ma'naviy boylik, o'zlikni anglash, eng muhimi insoniy tarbiyaning muhim manbai bo'lib xizmat qiladi. Aynan tarbiyaviy omilning kitobxonlik darjasini bilan bog'liqligi mutolaa ishining har qanday davrda ham davlat va jamiyat uchun asosiy masala ekanligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2017 yil 12 yanvardagi Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoni;
2. 2017 yil 13 sentyabrida davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimni rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori
3. Munavvarov. A. Pedagogika – Pedagogika Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo’llanma. Toshkent: O’qituvchi, 1996-2008.
4. Mahkamov. U. Axloq odob saboqlari. Toshkent: Fan, 1994.
5. Ochilov. M. Muallim – qalb me’mori. Saylanma. Toshkent: O’qituvchi, 2001. 430-b.